

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA NAVOIYNI QANDAY O‘RGANAMIZ

Asqarova Gulchehra Sobirovna

Yunusobod tumanidagi 258-umumi o‘rta ta’lim
maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
asqarova_gulchehra75@gmail.com

ANNOTATSIYA

Biz bu maqolada Alisher Navoiy asarlarini boshlang‘ich sinflarda qanday jahbada o‘qitish kerakligini, jajji o‘quvchilar qalbiga singdirish yo‘llarini, Navoiyning boy me’rosini pandnoma va didaktik ruhda o‘qitish usullariga e’tibor beramiz. Bobokalonimizning har bir asari tub mohiyatida ta’lim, tarbiya yuqori o‘rinda turadi, oliy maqomga ko‘tariladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, aforizmlar, matallar, maqollar, o‘quvchi yoshlari qalbiga dars mohiyatini singdirish.

ABSTRACT

In this article, we will focus on how to pass Alisher Navoi’s works in the primary grades, ways to inculcate them in the hearts of young students, ways to convey Navoi’s rich heritage in a pandoma and didactic spirit. In essence, education takes precedence, rises to a higher status.

Key words: Alisher Navoi, aphorisms, proverbs, sayings, instilling the essence of the lesson in the hearts of students.

Biz bilamizki, jamiyki xalqimizning qalbiga buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy asarlari kirib bormagani bo‘lmasa kerak. Chunki ul zotning asarlari barchamizga yosh kitobxonlarimizdan tortib, yoshi ulug‘ kitobxonlarimiz uchun ibratli, keng, mazmundor o‘gitlar, maqol va matallar, aforizmlarni hayotiy haqiqatlar bilan qalbimiz quriga jamlovchi durdonalardir. Uning har bir asari, ilmiy bo‘ladimi, badiiy yoki lug‘atshunoslikka oid bo‘lmasin, har birida inson hayotining mazmuni, hayot haqiqatining hikmatlari yotadi. Aytaylik uning turli mazmundagi turli xil asarlari: “Badoye ul-bidoya”, “Navodir un-nihoya”, “Tarixi muluki ajam”, “Tarixi anbiyo-u hukamo”, “Sab’atu abhur”, “Devoni Foniy”, “Muhokamat ul- lug‘atayn”, “Majolis un-nafois”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa”, “Holoti sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlovon Muhammad”, “Me’zon ul-avzon”, “Lison ut-tayr”, “Xazoyin ul-maoniy” devoni kabi barcha – barchasida inson ulug‘lanadi, adolatparvarlik yuksakka ko‘tariladi, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, Allohga bo‘lgan

muhabbat, Vatanga bo‘lgan sadoqat, ota-onaga, oilaga hurmat, vafodorlik, nafsni yengish, iymoni mukammal bo‘lish tuyg‘ulari; gumanizm g‘oyalari ulug‘lanib, bosh darajaga ko‘tariladi. Shunday ekan, g‘azal mulkining sultonı – Alisher Navoiy asarlarini nafaqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan, balki, bog‘cha bolalaridan boshlab, yuqori sinflargacha, oliy o‘quv yurti talabalarining qalbiga ham bugungi kunda alohida e’tibor bilan singdirilmoqda, shuning uchun ham har bir asar murakkabligi, mazmun darjasini qay yo‘sinda ekanligi, yosh chegarasining ko‘lamiga qarab har bir sinf darsliklariga kiritilgan. Masalan, Alisherning yoshligi mavzusidagi Oybekning kichik bir hikoyasi 4-sinf O‘qish darsligida keltiriladi, unda yosh shoirning do‘sti Husayn Boyqaro bilan bo‘lgan suhbatni va ular o‘rtasidagi do‘stona muloqot keltiriladi. Bu suhbatda biz Navoiyni yoshligidan nafis qalb egasi, so‘zni sevuvchi, shoirqalblilagini ko‘rishimiz mumkin. Shoirning maktabdosh do‘stlari bilan qiyos etganimizda ham doimo ul zot go‘zallikka oshnoligi, o‘zgacha zehni, ko‘p kitob o‘qishi, hozirjavobliligi bilan yaqqol ko‘zga tashlanadi. Do‘sti bo‘lmish temuriy shahzoda Husayn Boyqaroni ham ta’lanti, noyob aql idroki bilan uni o‘ziga tortadi. Podshoning butun umr yo‘lida, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatib, faqat yordamchi emas, suyukli do‘st, aqli vazir sifatida sobitqadam va hammaslak bo‘lgandir. Davlat ishlarida ko‘maklashib uning yuksak e’tiborini qozongani “amiri muqarrab” (shohning eng yaqin kishisi) unvonini olgani, bu esa bir muammo masalasi yuzasidan shohga yetti marotaba murojaat etishi mumkinligini anglatgan. Bunday yuksak unvon hammaga ham nasib etmasligi barchamizga ma’lum. Ayniqsa, shoir “Xamsa” asarini yozib tugatgandan keyin Husayn Boyqaro o‘zining oq otida Navoiyga jilovdorlik ko‘rsatadi. Bu ham Navoiyning naqadar hurmatga sazovor shaxs ekanligidan dalolatdir. O‘z navbatida Navoiy ham “Xamsa”ning birinchi dostoni bo‘lmish “Hayrat ul-abror” dostonida Bayqaroni “Shoh G‘oziy” deb ulug‘laydi. Navoiy asarlarning kelib chiqish mohiyati xalq og‘zaki ijodi-folklorizmga borib taqaladi. Folklardagi xalq maqollari, aforizmlarning mazmuni Navoiy asarlarining mazmunidir. Masalan, barchamizga ma’lum “Mahbub ul-qulb” (ko‘ngillarni sevgani) asari shoirning umrining so‘nggi vaqtlarida bitilgan bo‘lib hayotiy tajribalar asnosidadir. Unda to‘g‘rilik ulug‘lanadi, egrilik qoralanadi:

*To ‘g‘rilik-o ‘q, sarv, sham,
Egrilik-kamon yoyi, ilonga qiyos etiladi.*

Egrilik insonni yuztuban qilishi, uni qabih yo‘llarga olib borishi uqtiriladi. Boshlang‘ich sinf Odobnoma darsliklarida ham Navoiy asarlari pandnoma, nasihatnoma tarzda keltirilgan. Buni quyidagi misralarda ko‘rish mumkin. Qit’a:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,

*Jismni qil satqa ano boshig‘a,
Tun, kuning g‘a aylagaliy nurposh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.*

Misralari “Hayrat ul-abror” asaridan keltirilgan bo‘lib ota-onan har bir kishi uchun ulug‘ aziz ekanligi dinimiz ota-onan kim bo‘lishidan qat’iy nazar, ularni hurmat eh’tirom qilishga buyuradi, deb uqtiradi. Farzand ota-onaga muomala qilishda, garchi ular xatokor bo‘lsalar ham ehtiyot bo‘lishi, ularning qalbiga ozor berishdan tiyilmog‘i lozim. Shuningdek jamiyatda ham doim ota-onasiga olqish va rahmatlar keltiradigan amallarni qilishi kerak. Ota-onani la’natlash, so‘kish bilan ularning nomiga yomon so‘zlarni olishi kishi o‘zini-o‘zi Allohtaoloning la’natiga loyiq qiladi. Allohning la’natiga duchor bo‘lish esa rahmatidan mahrum qilinishdir. Bunday inson ikki dunyoda ham saodat topmaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi yoshlari qalbiga har qanday holatda ota-onasini hurmat qilishi, ularning duosini olishi, har doim ularga mehribonlik ko‘rsatishi yoshligidan singdiriladi. Navoiyning “Muhokamat ullug‘atayn” asarida esa biz barcha sinf o‘quvchilari uchun kerakli bo‘lgan fe’l so‘z turkumiga alohida to‘xtalganini ko‘ramiz. Birgina yig‘lamoq fe’lining 100dan ortiq variantlarini keltirganini ko‘rshimiz mumkin. Masalan, yig‘lamoq-siqtamoq-ho‘ngramoq va boshqalar. Ovoz darajasining ko‘tarilishi va ichki kechinmalarning ifodalanishiga ko‘ra fe’llarni darjalab ko‘rsatadi. Bu ma’lumotlar boshlang‘ich sinf ona tili darsliklarida qisman bo‘lsada soddalashtirilgan holda kiritilganini ko‘rshimiz mumkin. Shoir hikmatlari ham, ayniqsa, boshlang‘ich sinf darsliklaridan boshlab namuna sifatida keltirilgani ham uning ijodini anglash uchun bir debochadir. Navoiy hikmatlari:

*Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur,
Qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.*

*Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim,
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim*

*Odami ersang, demagil odamiy,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.*

Bu hikmatlar hayot haqiqatining in’ikosidir. Bugungi kunimizda xalqimiz uchun g‘oyat tafakkur mezoni bo‘lib xizmat qilmoqda. Har bir sinf uchun Navoiy asarlarini o‘rgatar ekanmiz, avvalo, biz o‘qituvchilar, o‘zimiz, Navoiy asarlarining ma’nosiga chuqur kirib bormog‘imiz va Navoiyni jon-u dilimiz bilan anglamog‘imiz kerak! Har bir darsimizni boshlashdan oldin shoirning misralari bilan boshlab, sharhlagmog‘imiz

dars mavzusining ko‘lамини yanada ko‘rkamroq qiladi va sifatini ta’minlaydi. Odob-axloq mezonlarini jajji o‘quvchi yoshlar ongiga ta’sir etish darajasini oshiradi. Xuddi shoirning o‘zi ta’kidlaganidek:

*Elga sharaf bo‘lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi xayo-u adab.*

Ya’ni odamzodning sharaf topishi mansab-martaba, boylik, yoki nasab orqali oshmaydi. Insonni faqat xayo va adab ulug‘laydi. Shu sababli Navoiyning pandnoma o‘gitlari odobnoma darsliklarida ko‘p uchraydi.

Masalan, 4-sinf “Odobnoma” darsligida quyidagicha fikrlarni uchratamiz:

*Har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshilikdin anga yaxshilik.*

Darslikning boshlanishi mana shu hikmatlar bilan boshlanadi. Yana biz kitobning “Milliy merosimiz-faxrimiz” bo‘limida “Navoiy va musavvir” mavzusida hikoya keltiriladi. Bu hikoya mazmunida Navoiyning ijod ahliga muruvvatpashaligini, doim yosh ijodkorlarning homiysi ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Navoiy haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagicha fikrlar bildirib ulug‘laydi: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun, bir davrni tashkil etadigan buyuk milliy adabiyotimizning tengsiz nomoyondasi, millitimizning g‘ururi, shan-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z sa’natkoridir”.

2016-yil Poytaxtimiz Toshkentda “Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti” unverstitutining tashkil etilishi ham bobokolonimizga nihoyatda, hurmat va ehtirom balandligini nishonidir.

Bugungi kunda bu unverstitutda juda ko‘plab kelajak talaba, yoshlari yetishib chiqmoqda. Xulosa qilib aytganda Navoiy asarlarini yosh avlod qalbiga singdirish va ularni teran fikrli o‘stirishimiz biz o‘qituvchilarni vazifamizdir.

Navoiy bobomizning 1966-yilda 525 yilligi munosabati bilan Xalq shoiri Abdulla Oripov quyidagicha misralarni bitadi:

*Jahonki muqaddas neni ko‘ribti,-
Bariga onasan, ey qodir hayot,
Besh yuz yil narida boqib turubti
Nurli bu yuzlarga nuroni yir zot.*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O'qish" darslik 4-sinf. T.: "Yangi asr avlodi".2020.
2. "Odobnoma" darslik 4-sinf.T.: "Yangi asr avlodi".2020.
3. Nurboy Jabborov. "Maoniy ahlining sohibqironi" manografiyasi.T.: "Adabiyot".2021.
4. "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug',hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" T.: "O'zbekiston" 2019. Shavkat Mirziyoyev